O‘ZBEKISTON REPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor
_____I.Bekpulatov
_____ 2025 y

08.00.12 – “MINTAQAVIY IQTISODIYOT” IXTISOSLIGI BO‘YICHA KIRISH IMTIHONI DASTURI

Tuzuvchilar: **i.f.d., professor A.O. Ochilov**
i.f.n, prof. G.P. Erkayeva
i.f.n, prof. G’.F. Qo’chqorov

Dastur universitet Kengashining 2025 yil 30 10 dagi majlisida tasdiqlangan (bayonnoma № 2)

QARSHI – 2025

Kirish

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari tablablariga asosan mutaxassislarining kasbiy mahoratini oshirish va oliy malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida menejment sohasidagi xalqaro amaliyot va andozalarni mamlakatimiz ta’lim tizimida qo‘llash bo‘yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu dasturga kiritilgan mavzu va dolzarb masalalar zamonaviy menejment sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holati va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotni tadqiq etish orqali shakllantirilgan.

Dasturda keltirilgan mavzu va masalalar “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligi bo‘yicha falsafa fanlari doktorligi (PhD) ilmiy darajasiga da’vogarlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki mazkur sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo‘yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab etadi.

Mazkur imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, Prezident hujjatlari va asarlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari talablari, asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar hamda Internet saytlari (jami 30 nomda)da mavjud ma’lumotlar asosida tuzilgan bo‘lib, 08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligidan iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olishga talabgorlar, tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilar institutiga kiruvchilar uchun mo‘ljallangan.

Dastur 08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligi pasportiga mos keladi.

Imtihon dasturi quyidagi masalalarni o‘z tarkibiga mujassamlashtirgan:

1-mavzu. “Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining mohiyati va vazifalari.

“Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari. Uning shakllanish davri va boshqa fanlar bilan aloqasi. XIX-XX asrlarda

mintaqaviy tadqiqotlar maktabi va fanning bugungi kundagi rivojlanish yo‘nalishlari. Mintaqaviy rivojlanish nazariyasi va uning maqsadi. Mintaqa iqtisodiyotini shakllantirish qonuniyatlari hamda uning asosiy jihatlari. “Mintaqa”, “Rayon”, “Hududiy sistema” va “Mintaqaviy xo‘jalik” tushunchalari. Mintaqada iqtisodiy faoliyat. Mintaqaviy siyosat asoslari. Davlat mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va uni amalga oshirish metodlari.

2-mavzu. Mintaqalarda ishlab chiqarishni joylashtirish va uni hududiy tashkil qilishning ilmiy-uslubiy asoslari.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning asosiy omillari va qonuniyatlari. Ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik g‘oyalari. Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari. Mintaqalarda innovatsion ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyasi va innovatsiyaning diffuziyasi. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishning mohiyati va asosiy shakllari. Hududiy ishlab chiqarish majmualarining mohiyati va turlari. Hududiy klasterlar tushunchasi.

3-mavzu. O‘zbekiston iqtisodiyotning hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlashtirish asoslari.

Iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasi, uni tashkil etishning asosiy tamoyillari va vazifalari. Hududiy mehnat taqsimoti, uning bosqichlari. Mintaqaviy ixtisoslashuv va uning samaradorligi, mintaqaning tarmoqning ixtisoslashuvini aniqlash metodlari. Iqtisodiy rayonlar tushunchasi. O‘zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish. Mamlakatning ma’muriy-hududiy tuzilishi va iqtisodiy rayonlari o‘rtasidagi aloqadorlik. Milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlar.

4-mavzu. Mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati va uni baholashning uslubiy asoslari.

Mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati va uning tasnifi. Mintaqa salohiyatidan foydalanish samaradorligi va uning tarkibiy elementlari. Mintaqada iqtisodiy o‘sish omillari. Iqtisodiy salohiyat va uning tarkibi. Respublika hududlarining tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash metodlari. O‘zbekiston hududlarining tabiiy sharoiti va qazilma boyliklariga baho berish. Mintaqa rivojlanishining resurs bazasi va uni shakllantirish masalalari.

5-mavzu. Mintaqalar aholisi va mehnat resurslari.

Demografik vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari va demografik siyosat. Aholining jinsiy va irqiy tarkibi, ularning mehnat resurslariga ta’siri. Iqtisodiy faol aholi. Savodxonlik darajasi. Aholining «sifati». Eski va yangi sug‘oriladigan mintaqalar o‘rtasida aholining hududiy qayta taqsimlanishi. Shahar va qishloq

aholisi. Urbanizatsiya darajasi va sur'atlari. Qadimgi va yangi shaharlar, qishloqlar joylashuvi. Aholi joylashuvini takomillashtirish va boshqarish. Demografik salohiyat va aholi muammolari. Bandlikning samarali natijalari va aholining ta'lim darajasi, kasb mahoratini oshirish muammolari. Bandlikning samarali natijalari va aholining ta'lim darajasi, kasb mahoratini oshirish muammolari.

6-mavzu. Mintaqalarning moliyaviy resurslari va budjet munosabatlari.

Mintaqalarda budjet munosabatlarining mohiyati va uni tartibga solish mexanizmi. Mintaqaning budjet-soliq tizimi. Mahalliy budjet tizimining vazifalari va uni shakllantirish tamoyillari. Mintaqa rivojlanishida mahalliy budjetning roli. Mintaqada moliya tizimi va uning vazifalari. Moliya tizimida A.Laffer nazariyasi. Mintaqaning moliyaviy ta'minotining mazmuni va uni baholash ko'rsatkichlari. Mintaqaning investitsion-innovatsion salohiyati va moliyaviy imkoniyatlari. Mahalliy o'z-o'zini boshqarishning moliyaviy-iqtisodiy asoslari. Mahalliy moliya tushunchasining mohiyati.

7-mavzu. O'zbekiston mintaqalarida sanoat tarmog'ini rivojlantirishning hududiy jihatlari.

Sanoatning rivojlanish darajasi va sur'atlari. Tarmoq tizimidagi o'zgarishlarning xozirgi davrdagi tendensiyalari. Yoqilg'i-energetika sanoatining joylashuvi. Yoqilg'i balansi. Gaz, neft, ko'mir sanoati - energetikaning asosi. Ularni qazib chiqarishning asosiy rayonlari. Neft va gazni qayta ishlash. Elektroenergetika. Qora metallurgiya. Rangli metallurgiya. Mashinasozlik. Avtomobilsozlik. Samolyotsozlik. Texnika va elektronika sanoati. Mineral o'g'itlar, sulfat kislota, sintetik tola va yigirilgan ip, plastmassa, rezina, texnika, jixozlari ishlab chiqarish. Qurilish materiallari va sement sanoati. Oyna sanoati. Yengil va oziq-ovqat sanoati.

8-mavzu. Mintaqalarda qishloq xo'jaligining hududiy ixtisoslashuvi.

Yangi turdagi agrar munosabatlarning shakllanishi. Tabiiy resurs zamini. Yer fondi va uning tuzilishi. Qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi va uning tarmoq tuzilishi. Ko'p tarmoqlarning ekstensiv xarakteri. Ixtisoslashuv. Mulkchilik shakllari, va korxonalar turi. Sug'oriladigan - yaylov chorvachiligi. Shahar atrofi qishloq xo'jaligi. Dehqonchilik. Ekin maydonlari tuzilishi. Chorvachilik tarmoqlari, qoramolchilik, qorako'lchilik, ipakchilik. Sug'oriladigan tekislik, cho'l, yaylov, shahar atrofi mintaqalari qishloq xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari. Qishloq xo'jalik xom-ashyolarini qayta ishlash muammolari. Bozor munosabatlari sharoitida agrar majmuaning rivojlanish istiqbollari.

9-mavzu. O‘zbekiston transporti, infratuzilmasi rivojlanishining mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari.

Transport tarmoqlarining shakllanishi, rivojlanishi va joylashishidagi iqtisodiy-geografik xususiyatlar. Temir yo‘llarning umumiy uzunligi. Avtomobil transporti. Avtomobil yo‘llarining uzunligi. Avtomobil yo‘llari tarmoqlari konfiguratsiyasi. Quvur transporti va uning ahamiyati. Havo transporti. Infrastruktura. Radio, tele, sputnik aloqalarning rivojlanishi. Suv va gaz ta’minotining mintaqaviy tizimi.

10-mavzu. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish va uni boshqaruvdagi roli.

Mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning metodlari va asosiy vositalari. Mintaqada iqtisodiy islohotlarni olib borishni monitoring qilish. Mintaqaviy boshqaruv va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarni hal etish metodlari. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini boshqarish instrumentlari. Mintaqaviy marketing. Mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirish nazariyasi, uning mohiyati va bosqichlari. Strategik rejalashtirishning xususiyatlari, obe’kti va tamoyillari. Hududiy dasturlar, ularning tasniflanishi va tarkibiy tuzilishi. O‘zbekistonda hududiy dasturlarni ishlab chiqish amaliyoti.

11-mavzu. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni imkoniyatlari.

O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Hududiy o‘sish nazariyalari tahlilini boshlashdan oldin, u bilan bog‘liq ikkita masalani ko‘rib chiqish zarur. Birinchisi – «o‘sish» va «rivojlanish» kategoriyalarining nisbatlari, ikkinchisi – o‘sish muammolari ko‘rib chiqiladigan mintaqalar chegaralarini aniqlash. Hududlarning iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari. Mintaqalarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni kengaytirish yo‘llari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo‘llari, mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati.

12-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat, ahamiyati va uni amalga oshirish yo‘llari.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo‘yicha xorijiy tajribalar. Ko‘plab mamlakatlarda mintaqaviy siyosat o‘zining ichki imkoniyatlari va shart-sharoitlaridan kelib chiqib, turli hududlar uchun turlicha qo‘llanilishi. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning eng ommaviy usullaridan biri hududiy rivojlantirish jamg‘armalarini tashkil etishi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

Mintaqaviy siyosat - hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir.

13-mavzu. Mintaqalarning tashqi iqtisodiy aloqalari va eksportni ko‘paytirish yo‘llari.

Tashqi iqtisodiy aloqalar. O‘zbekistonning halqaro iqtisodiy aloqalarining asosiy yo‘nalishlari va shakllari. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik. Paxta kopleksining eksport salohiyatini rivojlantirish. Mintakalarda tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish yo‘llari. Hamkorlikka asoslangan siyosat. Xitoy – strategik sherik va yirik hamkor. Shanxay hamkorlik tashkiloti – xavfsizlik va hamkorlik garovi.

14-mavzu. Mintaqalarda tabiat komponentlaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish.

Atmosfera havosining ifloslanishi. Statsionar manbalardan chiqadigan chiqindilar. Atmosfera havosining ifloslanishiga harakatlanuvchi manbalarning ta’siri. Chegarabo‘yi hududlarida atmosfera havosining ifloslanishi. Suv resurslarining holati va ulardan foydalanish. Suv resurslari ifloslanishining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Suvdan foydalanishning iqtisodiy mehanizmini takomillashtirish. Yer resurslarining holati va ulardan foydalanish. Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni utilizatsiyalash. Yerlarni kadastr va bonitirofkalash.

15-mavzu. O‘zbekistonning respublika, mintaqa, va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi vakolatlarni taqsimlash mexanizmi

“Davlat boshqaruvi”, “Mintaqaviy boshqaruv” va “Mahalliy boshqaruv” tushunchalarining mazmun-mohiyati. O‘zbekistonda Respublikasi mintaqa va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida vakolatlarni o‘zaromanfaatli asosda taqsimlash zarurati. Mahalliyt uzilmalar faoliyatida muammolar va ularning yechimlari. O‘zbekistonda respublika mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash tamoyillari. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish sohasida qonunchilik faoliyatini takomillashtirish strategiyasi. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshirish shakllari.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi yozma ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi. Talabalar javob yozishi lozim bo‘lgan variantlarda 4 tadan savol bo‘lib, har bir savolning javobiga maksimal 25 balldan ajratiladi.

Har qaysi savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	**Yozgan javobiga qo‘yiladigan talablar**
21,0-25,0	Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to‘g‘ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
16,0-20,0	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
11,0-15,0	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
1,0-10,0	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 17fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi 604-sonli qonuni.

2.O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. O‘RQ-599-sonli 2019 yil 30dekabr.

3.“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni 2019 yil 13 avgustdagi O‘RQ-552-sonli qonuni.

4.O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida. O‘RQ-589-sonli, 2019 yil 9 dekabr.

5.O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida. O‘RQ-657-sonli, 2020 yil 25 dekabr.

6.O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Yangi tahriri. 2020.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli" 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi To‘g‘risida PF-60-sonli 2022 yil 28-yanvar.

9. R. Capello. Regional Economics, 2015 by Pearson Education, Inc.p. 370.

10.V. Henderson. Handbook of Regional and Urban Economics, 2013 by Pearson Education, Inc.p. 312.

11.Harvey Armstrong , Jim Taylor. "Regional Economics and Policy, 3rd Edition " 2012 Inc.p. 406. 4.Солиев А.С., Аҳмедов Э. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2009. – 304 б.

12.Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. ЎзМУ. – Т.; Мумтоз сўз, 2010. 348 б.

13. Ермошина Г.П., Поздняков В.Я. Региональная экономика. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 576 с.

14. Игнатов В.Г., Бутов В.И. Регионоведение (экономика и управление). Учебное пособие. 3-е издание, перераб.и.доп. – М.: Март, 2009. – 528 с.

15. Морозова Т.Г.и др. Региональная экономика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 527 с.

16. Назаров Ш.Х., Сайдахмедов Х.М., Рафиев А.А. и др. Научно-методические основы формирования стратегии социально-экономического развития регионов на долгосрочную перспективу. Коллективная монография / Под ред.Садыков А.М. – Т., 2012. – 213 с.

17. Назаров Ш.Х. и др. Стратегия социально-экономического развития Андижанской области на долгосрочную перспективу. Коллективная монография // Под ред. Садыков А.М. – Т., 2012. – 199 с.

18. Региональная экономика: учебник для студентов вузов. – 4-е изд., перераб. и доп / Под редакцией профессора Т.Г. Морозовой. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 527 с.

19. Садыков А. М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. Монография. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2005.-280 с.

20. Современные подходы и практика разработки, реализации и стратегических планов/ Материалы семинара-тренинга. –Т., ИПМИ, 2011.34 с.
21. Территориальное планирование: новые функции, опыт, проблемы, решения: Сб.ст./ Под ред. А.И.Чистобаева. – СПб.: Изд-во “С.-Петерб.ун-та” , 2009. – 189 с.
22. Белокрылова О.С., Киселева Н.Н., Хубулова В.В. Региональная экономика и управление. Учебное пособие. – М.: Альфа-М, ИНФРА-М, 2009. – 240 с.
23. Вавилова Е.В. Экономическая география и регионалистика. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2011. – 224 с.
24. Видяпина В.И., Степанова М.В. Региональная экономика. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 666 с.
25. Андреев А.В. и др. Региональная экономика. Учебник. – СПб.: ПИТЕР, 2012. – 464с.
26. D.Nabiyev, G.Erkayeva, G’.Nabiyev “Mintaqaviy iqtisodiyot” o’quv qo’llanma Qarshi 2022
27. www.lex.uz
28. www.tfi.uz
29. www.ifmr.uz
30. www.gov.uz